

## Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha 2026-yilning birinchi yarim yillik moliyaviy natijalari

**O'zbekiston, Navoiy shahri, 2026-yil 28-sentabr** – “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (“NKMK” AJ) 2026-yilning birinchi yarim yilligi uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy natijalarni e'lon qiladi.

**Bosh direktorning moliya, transformatsiya va xususiylashtirish bo'yicha birinchi o'rinbosari Jahongir Xasanov ta'kidlaganidek:** *“2026-yilning birinchi yarim yilligida “NKMK” AJ 1,51 mln. troy unsiya oltin ishlab chiqarib, jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalardan biri sifatidagi maqomini tasdiqladi hamda ishlab chiqarish hajmi va ishlab chiqarish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha umumiy pul xarajatlari (AISC) darajasi bo'yicha global yetakchilar orasidagi o'rnini mustahkamladi. Sof tushum 7,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 49,9% ga oshdi. Sof foyda 2 382 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2025-yilning birinchi yarim yilligiga nisbatan 57,2% ga oshdi. Qarz yuklamasi ko'effitsiyenti 0,5x dan 0,3x gacha yaxshilandi, bu Kompaniyaning mustahkam moliyaviy barqarorligi, majburiyatlarga nisbatan samarali nazorat hamda xavf-xatarlarga nisbatan konservativ yondashuvini bildiradi.”*

### Asosiy faktlar

- 2026-yilning birinchi yarim yilligida Kompaniyaning sof tushumi 7 067 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2025-yilning birinchi yarim yilligiga (4 715 mln. AQSh dollari) nisbatan 49,9% ga yuqori. O'sishning asosiy omili London qimmatbaho metallar birjasida (LBMA) oltin narxining sezilarli darajada oshishi bo'ldi, bunda oltin ishlab chiqarish hajmi 1,51 mln. troy unsiyani tashkil etib, 2025-yilning birinchi yarim yilligiga (1,54 mln. troy unsiya) nisbatan 1,8% ga kam.
- Ishlab chiqarish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha umumiy xarajatlar (AISC) 2026-yilning birinchi yarim yilligida bir unsiya uchun 1 647 AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2025-yilning birinchi yarim yilligida qayd etilgan 1 164 AQSh dollariga nisbatan yuqoridir. Ko'rsatkichning o'sishiga asosiy omillar sifatida oltinning yuqori narxlar fonida royalti (yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq) to'lovlarining ko'payishi (AISC tarkibida 31% ulushga ega) hamda inflyatsiyaning sarflanadigan materiallar qiymatiga ta'siri bo'ldi.

AISC ko'rsatkichining o'sishiga qo'shimcha omili “Muruntov” konida o'rta va uzoq muddatli istiqbolda ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan “Muruntov konini o'zlashtirish — V navbat II bosqich” investitsion loyihasi doirasidagi tuproqning ustki qatlamlarni olib tashlash ishlariga salflangan xarajatlarning ortishi bo'ldi.

2025-yilning birinchi yarim yilligiga (12 892,91 UZS/USD) qaraganda, 2026-yilning birinchi yarim yilligida (12 102,41 UZS/USD) o'zbek so'mining AQSh dollariga nisbatan 6,1% ga mustahkamlanishi, AISC ko'rsatkichining bir unsiya uchun 101 AQSh dollariga oshishiga olib keldi. Bu esa ko'rsatkichning umumiy o'sishidan 8,7% ni tashkil etdi.

“NKMK” AJ jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar orasida AISC darajasi bo'yicha yetakchi o'rnini saqlab qolmoqda.

- Moslashtirilgan EBITDA ko'rsatkichi 4 889 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2025-yilning birinchi yarim yilligida qayd etilgan 3 060 mln. AQSh dollariga nisbatan 59,8% ga yuqori. Oltin narxlar va tushumlarning ichlab chiqarish xarajatlariga nisbatan tezroq o'sishi 2026-yilning

birinchi yarim yilligida moslashtirilgan EBITDA marjasining 69,2% gacha oshishiga imkon berdi (2025-yilning birinchi yarim yilligida — 64,9%).

- Investitsion faoliyatga yo‘naltirilgan sof pul mablag‘lari (Cash CAPEX) 543 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2025-yilning birinchi yarim yilligida qayd etilgan 412 mln. AQSh dollariga nisbatan 31,8% ga ko‘pdir. Investitsiyalar asosan amaldagi konlarda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga, jumladan, tog‘-kon texnikasi parkini kengaytirish hamda resurs bazasini oshirish maqsadida geologiya-qidiruv loyihalarini riazatsiya qilishga yo‘naltirildi.
- Kompaniyaning qarz yuklamasi (sof qarzning moslashtirilgan EBITDA<sup>TM</sup> ga nisbati) 2025-yilning birinchi yarim yilligida 0,5x bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yilning birinchi yarim yilligida 0,3x gacha yaxshilandi, bu esa Kompaniyaning moliyaviy intizomi saqlanib qolayotganini tasdiqlaydi.

2026-yil 30-iyun holatiga ko‘ra, “NKMK” AJning qarz portfeli asosan quyidagilardan iborat:

- 2025-yil may oyida London fond birjasida joylashtirilgan 500 mln. AQSH dollari miqdoridagi xalqaro obligatsiyalar;
- 2024-yil oktabr oyida joylashtirilgan 1 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi xalqaro obligatsiyalar.

Natijada, qarz portfeli bo‘yicha o‘rtacha samarali foiz stavkasi 2026-yilning birinchi yarim yilligida yillik 6,67% gacha pasaydi, 2025-yilning birinchi yarim yilligida esa bu ko‘rsatkich 7,71% ni tashkil etgan, bu esa qarzning xizmat ko‘rsatish xarajatlarini optimallashtirishga va hisoblangan foizlar bo‘yicha moliyaviy xarajatlarni kamaytirishga yordam berdi.

### Moliyaviy ko‘rsatkichlar<sup>1</sup>

| Asosiy ko‘rsatkichlar                                                            | O‘lchov birligi       | 1Y 2026 | 1Y 2025 | Δ         |
|----------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|---------|---------|-----------|
| Oltin ishlab chiqarish                                                           | mln. troy unsiya      | 1,51    | 1,54    | -1,8%     |
| Sof tushum                                                                       | mln. AQSH dollari     | 7 067   | 4 715   | 49,9%     |
| Operatsion foyda                                                                 | mln. AQSH dollari     | 4 511   | 2 810   | 60,5%     |
| Davr foydasi                                                                     | mln. AQSH dollari     | 2 382   | 1 515   | 57,2%     |
| Umumiy pul xarajatlari (TCC)                                                     | AQSH dollari / unsiya | 1 277   | 994     | 28,5%     |
| Ishlab chiqarish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha umumiy xarajatlar (AISC)         | AQSH dollari / unsiya | 1 647   | 1 164   | 41,5%     |
| Moslashtirilgan EBITDA ko‘rsatkichi                                              | mln. AQSH dollari     | 4 889   | 3 060   | 59,8%     |
| Moslashtirilgan EBITDA marjasi                                                   | %                     | 69,2    | 64,9    | +4,3 n.p. |
| Operatsion faoliyatdan sof pul oqimi                                             | mln. AQSH dollari     | 2 514   | 2 602   | -3,4%     |
| Investitsiya faoliyatiga yo‘naltirilgan sof pul mablag‘lari                      | mln. AQSH dollari     | 543     | 412     | 31,8%     |
| Qarz yuklamasi koeffitsiyenti (Sof qarz / Moslashtirilgan EBITDA <sup>TM</sup> ) | x                     | 0,3x    | 0,5x    | -40,0%    |

MHXS bo‘yicha to‘liq moliyaviy hisobot bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin:

<https://www.ngmk.ru/en/investors/reports-and-results/>

### Kompaniya haqida

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar to‘rttaligiga kiradi. Kompaniya yer osti boyliklari zaxiralarini geologik qidirish, qazib olish va qayta ishlashdan to‘ tayyor mahsulot olishgacha bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari to‘liq amalga oshiriladigan sanoat klasteridir.

Kompaniyada 50 000 dan ortiq ishchi-xodim ishlaydi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan 12 dan ortiq yirik konlar va 10 ta qayta ishlash korxonalaridan iborat.

NKMKning asosiy aktivlari qatoriga resurs bazasi 100 mln. unsiyadan ortiq bo'lgan dunyodagi eng yirik oltin konlaridan biri "Muruntov" koni kiradi. Bu kompaniyaning jahon oltin qazib olish sanoati va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi strategik rolini ta'kidlaydi.

Kompaniya haqida qo'shimcha ma'lumotlar bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin:

<https://www.ngmk.uz>

---

<sup>1</sup>*Kompaniya tomonidan taqdim etilgan moliyaviy ko'rsatkichlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)da belgilangan yoki ko'rsatilgan ko'rsatkichlarga qo'shimcha ravishda keltirilgan – moslashtirilgan EBITDA, TCC, AISC kabi muqobil samaradorlik ko'rsatkichlarini (MSK) o'z ichiga oladi.*

*Moslashtirilgan EBITDA<sup>TTM</sup> — bu hisobot sanasigacha bo'lgan so'nggi 12 oy uchun hisoblangan moslashtirilgan EBITDA ko'rsatkichi.*